



TIBBIY TA'LIM TALABALARINI INTENSIVLIK ASOSIDA MUTAXASSISLIK KO'NIKMALARINI.

Mirzaqandov E.E.

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot inistituti Stomatologiya va
Otorinolarinologiya kafedra assienti.*

Kirish: Hozirgi kunda tibbiyot sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa tibbiy ta'lim tizimidan yuqori malakali, zamonaviy klinik ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. An'anaviy ta'lim metodlari ushbu talabga to'liq javob bermasligi sababli, intensiv va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar keng tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik ko'nikmalarini rivojlantirishda intensiv mashg'ulotlar asosida simulyatsion va real klinik muhitda o'quv jarayonlarini tashkil qilish dolzarb masalaga aylangan.

Asosiy qism: Zamonaviy tibbiy ta'limda klinik va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni keng o'rganilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2013) o'z tavsiyalarida sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda intensiv, tajribaga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor deb hisoblaydi. Harden va Laidlaw (2020) tomonidan ta'kidlanganidek, zamonaviy tibbiy pedagogikada talabaning faol ishtiroki va refleksiya asosida o'rganish samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Issenberg va boshqalar (2005) tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlilga ko'ra, yuqori darajadagi simulyatsiyalar (high-fidelity simulations) klinik tayyorgarlikni oshirishda muhim vositadir. Bu metodlar orqali talaba real klinik holatlarga yaqin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilishni mashq qiladi.

Ten Cate (2017) esa tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali talabaning faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham yetuk mutaxassis bo'lib yetishishini asoslaydi. Reflektiv o'qitish va orqaga aloqa (feedback) metodlari orqali esa talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va professional o'sishga intilish rivojlanadi (Yardley et al., 2012).

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar (2021) ham tibbiy ta'limda intensiv amaliy mashg'ulotlar va simulyatsion texnologiyalarning keng joriy etilishini qo'llab-quvvatlamogda. Xulosa sifatida, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intensivlik asosidagi o'qitish, simulyatsion metodlar, va kompetensiyaviy yondashuv tibbiy ta'limda professional ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.



Xulosa: Tibbiy ta'limda intensivlik asosida mutaxassislik ko'nikmalarini shakllantirish orqali talabalar amaliy tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin. Simulyatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va reflektiv ta'lim usullarini uyg'unlashtirish orqali yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashga erishiladi. Ushbu yondashuvlar tibbiy ta'limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

